

SOBIR O'NARNING "TARVUZ" HIKOYASI HAQIDA

*Inomjonova Xusniyaxon**Qo'qon universiteti Andijon filiali talabasi**Ilmiy rahbar: Qodirov Abdulaziz**Kuaf dotsenti, f.f.f.d(PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining serqirra yozuvchilaridan biri Sobir O'narning "Tarvuz" hikoyasida yoritib berilgan badiiy obrazlar tizimi hamda yozuvchi uslubining xususiyatlari Dilmurod Quronovning "Adabiyot nazariyasi asoslarlari" kitobida yozilgan nazariy me'zonlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ichki monolog, emotsional birlik, obrazlilik, bevosita psixologizm, ekspozitsiya, bosh personaj, personaj, ikkinchi darajali personaj, epizodik personaj, badiiy obraz.

Аннотация. В статье рассматривается система художественных образов и особенности стиля письма одного из самых разносторонних писателей узбекской литературы Собира Онара повести «Арбуз» на основе теоретических критериев, изложенных в книге Дильмурада Куронова «Основы теории литературы».

Ключевые слова: внутренний монолог, эмоциональное единство, образность, непосредственный психологизм, экспозиция, главный персонаж, персонаж, второстепенный персонаж, эпизодический персонаж, художественный образ.

Annotation: This article examines the system of artistic images and the peculiarities of the writing style of one of the most versatile Uzbek writers, Sobir Onar, in his short story "Watermelon". The analysis also considers the features of the writer's style based on the theoretical principles presented in Dilmurod Quronov's book "Fundamentals of Literary Theory".

Key words: Inner monologue, emotional unity, imagery, direct psychologism, exposition, main character, character, secondary character, episodic character, artistic image.

O'zbek yozuvchiligi taraqqiyotida Sobir O'narning hikoyalari alohida o'rin tutadi. Uning "Tarvuz" hikoyasida insonning ijtimoiy-iqtisodiy holati, do'stlikning qadr-qimmati va insoniy munosabatlarning qiyinchiliklariga bag'ishlangan bo'lib, uni chuqur falsafiy mazmunda aks ettiradi.

"Tarvuz" hikoyasida oddiy bir inson - halol mehnatkash qahramon tasvirlanadi. Yozuvchi tarvuz voqealari orqali jamiyatdagi halollik va insoniy munosabatlarni yorqin aks ettiradi. Hikoyadagi tarvuz yozuvchi tomonidan yaratilgan badiiy timsol, ya'ni badiiy obrazdir. Quronovning fikricha, "badiiy obrazning predmetli tomoni – tasvir planidan kelib chiqib inson obrazi, jonivorlar obrazi, tabiat obrazi, narsa-buyumlar obrazi tarzidagi atamalar ham ishlatiladi". (Quronov, "Adabiyot nazariyasi asoslari", 109-bet). Shu jihatdan tarvuz oddiy meva emas, balki do'stlikning qadr-qimmatidir.

Hikoyadagi konflikt tashqi emas, balki ichki – insonning o'z nafs bilan kurashishdir. Quronov ta'kidlaganidek, konflikt deganda badiiy asar personajlarining o'zaro kurashlari, qahramonning o'z muhiti bilan ziddiyatlari, shuningdek, uning ruhiyatida kechuvchi qarama-qarshiliklar tushuniladi. (Quronov, "Adabiyot nazariyasi asoslari", 176-bet). Hikoyada Omondavlat qishloqdan shaharga do'sti Xudoyqulnikiga mehmonga kelib xato qilgani, ular miriqib suhbat qurayotgan paytda Xudoyqulning uyiga hamkorlari kelib, ularni noz-u ne'matlari bilan siylagani Omondavlatni qattiq ranjitdi. Shu sababdan Omondavlat Xudoyqulning uyiga mehmonga kelganini noto'g'ri deb o'ylab, uyidan bosh olib ketadi.

Ichki monologga Quronovning nazariyasiga asosan shunday ta'rif berish mumkin: "Mohiyatan ichki monolog personajning moddiylashmagan, o'ziga qaratilgan va faqat ichidagina kechuvchi nutqi bo'lib, shartli ravishda uning ongida kechayotgan fikrlash (his qilish) jarayoni deb qabul qilinadi". (Quronov, "Adabiyot nazariyasi asoslari", 104 va 105-betlar). Hikoyada "Omondavlat shu dollar deganlarning

basharasiniyam ko'rmadim-da, o'zi u necha so'm turadi, qayerda sotiladi, deb so'ramoqchi bo'ldi, ammo shu mavzu unga ko'p xush kelmadi". Yozuvchining hikoyasidagi ushbu parchada Omondavlat so'zlarni Xudoyqulga aytishni ep ko'rmadi.

Quronov aytadiki, emotsional birlik – adib o'z xarakter mohiyatiga kirgan sari qahramonlariga nisbatan hissiy munosabatda o'zgarish yuzaga kelishi. (Quronov, "Adabiyot nazariyasi asoslari", 93-bet). Masalan, "Tarvuz"dagi Omondavlat endi Xudoyqulning qadr don sinfdoshi emas, tamom begona odamga aylanib bo'lganini his etdi, afsuslanishini-da, begonasirashini-da bilmadi. Shunday vaziyat orqali hissiy holat yaratildi.

Obrazlilik – badiiy obraz vositasida fikrlashi (va ifodalashi) san'atning spetsifik, ya'ni tur sifatida belgilovchi xususiyati bo'lib, u obrazlilik deb yuritiladi. (Quronov, "Adabiyot nazariyasi asoslari", 88-bet). Hikoyada qayd etilishicha, Omondavlat Xudoyqulning unga qilgan salbiy muomalasidan so'ng televizorga qarab boshi qotadi, lekin qulog'i shapaloq tekkandek qizarib turardi. Yozuvchi obrazlilikni shu yo'l bilangina ochiq oydin tasvirlaydi.

Bevosita psixologizm da personaj ruhiyatini ochishda yozuvchi tabiat tasviridan yoki boshqa biror narsa obrazidan foydalanishi mumkin. (Quronov, "Adabiyot nazariyasi asoslari", 107-bet). Sobir O'narning hikoyasida shunday bir holat tasvirlanadi: Xudoyqul Omondavlatning olib kelgan yeguliklarini xotiniga olib kelishni buyuradi, shunda Omondavlat "shart emas"ligini aytadi. U ichki kechinmasida yeguliklarni iste'mol qilish istagi borligi, "yarimta" ustida ezilishgisi, samimiyroq suhbat sog'inayotganini sezdirgan edi. Yozuvchi shu holat orqali bevosita psixologizmni yoritib berdi.

Ekspozitsiya – syujetning boshlanish qismi bo'lib, asar voqealari kechadigan joy. (Quronov, "Adabiyot nazariyasi asoslari", 173-bet). Hikoyadagi barcha voqealar Xudoyqulning uyida yuz beradi, jumladan Omondavlat Xudoyqulnikiga mehmonga borishi, u yerdagi ziddiyatlar barchasi bir uyda tasvirlandi.

Personajlar sistemasi – asarda personajlarning o'zaro aloqadorlikda joylashtirilishi. (Quronov, "Adabiyot nazariyasi asoslari", 186-bet). Bu jihatdan, masalan, hikoyadagi

Omondavlat va Xudoyqul – bosh personaj, Sapuvra – personaj, Xudoyqulning mehmonlari – ikkinchi darajali personaj, Omondavlatning xotini – epizodik personaj sifatida tasniflashimiz mumkin.

Tugallanmaganlik – san’atkor badiiy obraz orqali ifodalamoqchi bo’lgan fikrni oxirigacha tugal aytmaydi (ya’ni kitobxon og’ziga chaynab solib qo’ymaydi), obrazning ayrim chizgilarini punktirlar (uzuq-uzuq chiziqlar) bilan tortadi – tugallanmaganlik deganimiz shu. (Quronov, “Adabiyot nazariyasi asoslari”, 96-bet). “Tarvuz” hikoyasida Omondavlat, xotini va bola- chaqalari Xudoyqulnikidan uyiga qaytayotganda ko’cha boshidagi axlatxonada olib kelgan ikki tarvuzini ko’rib biroz ranjiydi va Xudoyqul bilan umrbod teskari bo’lib qolishdan cho’chib to’xtamay yo’lida davom etadi. Biz kitobxonlarga ikki do’stning bir-biriga munosabati o’zgargan yoki o’zgarmaganini, Omondavlat Xudoyqulni qilgan ishlaridan keyin uni qanday qabul qilganini yozuvchi oxirigacha tugal aytmaydi. Ayni shu xususiyat tufayli ham asarni turli davrlarda turlicha uqish, uning zamiridan yangi-yangi ma’nolarni ochish imkoni yaratiladiki, ayni shu xususiyat chinakam san’at asarini boqiylikka daxldor etadi.(Quronov, “Adabiyot nazariyasi asoslari”).

Xulosa qilib aytganda, Sobir O’narning “Tarvuz” hikoyasi o’zbek adabiyotida insoniylik, halollik, vijdon va mehr-oqibat g’oyalarini badiiy obrazlar orqali yuksak mahorat bilan ifodalagan hikoyalardan biridir. Dilmurod Quronovning “Adabiyot nazariyasi asoslari” kitobida ko’rsatilgan nazariy tamoyillar asosida tahlil qilinganda, hikoyaning badiiyligi, obrazlilik tizimi, va g’oyaviy yo’nalishi chuqur falsafiy mazmunga ega ekani ayon bo’ladi. Bu hikoya orqali yozuvchi kitobxonni bir haqiqatga chorlaydi – halollik eng katta **boylikdir**.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D.H.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr, 2018.
2. QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 386-388.

3. Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *University Research Base*, 857-860.
4. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 2(42), 144-149.
5. Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. *Наука и технология в современном мире*, 4(5), 36-38.
6. O'G'Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). *World of Philology*, 2(2), 46-50.
7. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 271-276.
8. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 173-176.
9. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In *Конференции*.